

DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IQTISODIY BILIMDONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TEXNOLOGIYASI

Jumayeva Feuza Sayidovna

Buxoro davlat Pedagogika insituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning texnologiyasi hamda didaktik o'yinlarning o'quvchilarni ijtimoiylashuv imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositasi ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar berilgan. iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantiruvchi o'yin turlari ko'rsatilib, ularning mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Didaktik o'yinlar, didaktik vosita, iqtisodiy ta'lim, ishchan o'yinlar, rivojlantiruvchi o'yinlar, bozor, pul, tovar, mulk, maosh, daromad, bank, narx, birja, valyuta, mantiqiy tafakkur, intellektual, taraqqiyot.

Umumiy o'rta talim tizimi jamiyat azolariga mamlakat iqtisodiy salohiyati va iqtisod nazariyasiga oid dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ehtiyojini qondirishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda so'nggi yillarda pedagogika fanida ham o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni taqdim etish nazariyasi va amaliyotini yangilash va boyitish ehtiyoji vujudga keldi. O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni taqdim etishda turli usullar va metodlar bilan bir qatorda, o'yinlardan foydalanish samaraliroq ekanligini kuzatishlarimiz va amaliy ish tajribamiz yaqqol ko'rsatmoqda. Chunki o'yinlar yordamida ijtimoiy voqelikni o'quvchilar ko'z o'ngida yanada yorqinroq va aniqroq aks ettirish imkoniyati mavjud.

Iqtisodiy talim amaliyotida o'yinlardan foydalanish zaruriyati bir qator ijtimoiy madaniy holatlar bilan ham izoxlanadi. Bu zaruriyat ijtimoiy uyushganlikning yangi shakllarini izlash va qo'llash bilan bevosita bogliqdir. Bunda o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabat madaniyati ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarning muloqot madaniyati darajasini rivojlantirish ehtiyoji didaktik jarayonlarda o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu asosda ularning qiziqishlarini iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish mumkin. Chunki o'yinlar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni bilish imkonini beradigan o'quvchilar hayotiga yaqin bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham, o'yinlar yordamida o'quvchilarga iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni taqdim etish eng qulay pedagogik vositalardir.

O'yinlarning inson intellektual taraqqiyotiga ko'rsatadigan tasiri barcha davrlarda mutaxassislarning etiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Dastlab o'yinlardan foydalanish masalasiga o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish imkoniyati sifatida qaralgan. Ajdodlarimiz o'yinlarni yoshlarni aqliy va jismoniy rivojlantirish vositasi sifatida baholaganlar. Shuning uchun ham, o'tmishda enagalar, tarbiyachilar va ota-onalar farzandlarining asosiy vaqtlarini ularni aqliy rivojlantirishga xizmat qiladigan o'yinlar bilan o'tkazishga etibor qaratganlar.

Muayyan faoliyatni bajarish jarayonida o'quvchilar jadal rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda ular foydalanadigan turli buyumlar, amalga oshiradigan munosabatlarni bilish ehtiyoji vujudga keladi. Shu asnoda o'quvchilar turli operatsiyalarni bajarishga muvaffaq boladilar. Ayniqsa, o'smir yoshdagi o'quvchilar o'z muammolarini mustaqil hal etishga harakat qiladilar. Chunki ular atrofdagilar nazdida o'zlarining ulgayganliklarini namoyon qilishni istaydilar. Masalan, ko'pgina o'smir yoshdagi o'quvchilar mashinani mustaqil boshqarishni xohlaydilar. Biroq, mazkur harakatning iqtisodiy asoslari va oqibatleri haqida hech qachon o'ylab ko'rmaydilar. Chunki ular barcha operatsiyalarni o'zlashtirmaganliklari tufayli xatolarga yo'l qo'yishlari mumkinligini tasavvur qilolmaydilar. O'z xatti-harakatlarining mohiyatini tushunishlari uchun ularni ko'proq iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan o'yin faoliyatiga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

O'yin harakatlari orqali o'quvchilar o'zaro aloqador bolgan turli operatsiyalarni bajarish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini to'g'ri anglash imkoniyatiga ega boladilar. Chunki mazkur o'yinlarda ular bajaradigan harakatlarning mohiyati namoyon boladi.

Didaktikaning muhim qonuniyati shaxsni rivojlantirishdan iborat ekan, o'quvchi o'quv-biluv jarayonida ijtimoiy muhitdagiga nisbatan ko'proq tushuncha va ma'lumot olishni ta'minlash talab etiladi. Shundagina ta'lim o'quvchi shaxsiga nisbatan rivojlantiruvchi ahamiyat kasb eta oladi. Rivojlantiruvchi xarakterdagi o'quv-biluv jarayonini tashkil etish uchun, yangi omilkor pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish quyidagi didaktik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi:

1. Yuqori darajali murakkablikda o'qitish. Materialni taqdim etishning qiziqarli va hammabopligiga qaramay, iqtisodiy bilim va tushunchalarni o'zlashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birmuncha qiyin vazifa hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'quvchi tirishqoqlik qilishi, ba'zida boshqa o'quvchi yoki o'qituvchining yordamiga murojaat etishiga to'g'ri keladi.

2. Materialning tezkorlik bilan o'zlashtirilishi. Har bir darsda o'quvchilar yangi o'quv materialini bilan, yoki ilgari o'zlashtirilgan o'quv materialining yangi qirralariga duch keladilar.

3. Nazariy bilimlarshshg yetakchi o'zni o'rganilayotgan savollar poydevori bo'lgan iqtisodiyotga oid asosiy tushuncha va kategoriyalarning mohiyatini aniqlash va tushunib yetish hamda zaruriy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishdan iboratdir.

4. O'qitish jarayonini to'g'ri amalga oshirilishi o'quvchilarda o'rganilayotgan o'quv materiallarini boshqa o'quv fanlari hamda atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishdan iboratdir.

5. Barcha o'quvchilarning samarali rivojlanishi. Iqtisodga oid tushunchalar doirasida: har bir bola hayotida zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni taqdim qilib, ularning qobiliyatlarini rivojlanishi va individualliklarini ochilishiga erishish hisobiga sinfda o'zaro ishonuvchanlik muhitini vujudga keltirish uchun ularni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash lozim.

Hozirgi zamon didaktikasida ta'lim jarayonida o'quvchini faollashtirish asoslarining bir butun ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan tizimi yaratilgan. Chunonchi:

- a) ta'lim jarayonida o'quvchilar oldiga ijtimoiy-iqtisodiy borliqni bilish;
- b) o'quvchilarga ijtimoiy-iqtisodiy axloq me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liq vazifalar yuklanadi.

Iqtisodiy ta'limning muhim samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri - o'quvchilar bilimdonligining umumiy rivojlanishi, ya'ni faolligi, kuzatuvchanligi, mustaqilligi, amaliy faoliyati, fikrlashi, intellektual darajasi va irodasining rivojlanishi kabilardir. Iqtisodiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijobiy sifatlari (mehnatsevarlik, rostgo'ylik, tejamkorlik, halollik, omilkorlik, uddaburonlik, mustaqillilik, insoniylik, intizomlilik va h.k.) rivojlanadi. Bu sifatlar ularning ijtimoiy hayotga moslashishlariga katta yordam beradi.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

Shunga ko'ra ta'lim jarayoni ikki tomonlama faoliyat bo'lib, unda jarayon sub'ekti hamda rahbari-o'qituvchi birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim. O'quvchi va o'qituvchi ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro munosabatga kirishishi kerak. Barkamol avlodni, ya'ni yangicha onnga, tafakkurga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak shaxslarning ko'payishiga olib keladi. Iqtisodiy bilim, tushuncha va atamalarni taqdim etishga yo'naltirilgan o'quv materiallari va didaktik modullarning o'ziga xos jihati shundaki, bu bilimlar kundalik ijtimoiy munosabatlar, shaxslararo muloqot jarayonida tezkor tarzda mustahkamlanadigan va ko'nikma-malakalarga aylanadigan bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu ko'nikma va malakalarning har tomonlama boy, serqirra va uzviy aloqadorlikda rivojlanishini ko'zda tutish lozim. Chunonchi, iqtisodiy ta'lim

berish jarayonida ta'limning reproduktiv usulidan (lektsiya, aralash, dialog darsi va h.k.) foydalanish katta ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha pedagogik texnologiyalardan (suhbat, musobaqa, ish o'yinlari, konferentsiya va boshqalar) foydalanish natijasida o'quvchilar muammolarni ijodiy hal qilish, ularni yechish uchun mustaqil ravishda ma'lumotlar yig'ish, nostandart vaziyatlarni hal qilishda olgan bilimlarini qo'llash, fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarishni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim berishda biz ularning aniq tafakkur qilish qobiliyatining ko'proq rivojlanganligi, mantiqiy, abstrakt aqliy mulohazalar hamda umumlashiruvchi xulosalar chiqarish qobiliyati esa hali u darajada shakllanmaganligini inobatga olishga harakat qildik.

Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim berishning dastlabki yilida shunday iqtisodga oid tushunchalar bilan tanishtirish kerakki, ular bu tushunchalar bilan o'z oilalari, yaqinlari, maktab jamoasi orasida duch kelgan bo'lishlari lozim. Taqdim etilayotgan iqtisodga oid bilim, tushunchalar o'quvchilarga yaqin va tanish bo'lgani uchun, ular dars davomida mavzu bo'yicha bemalol mushohada yurita oladilar, xulosalar chiqaradilar. Sinf-dan-sinf-ga o'tib borgan sari ular aniq dalillarni umumlashirish, bir qancha abstrakt tushunchalarni shakllantirishni o'rganadilar, ularda izchil tahlil qilish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Shuning uchun taqdim etilayotgan iqtisodga oid bilim tushunchalar doirasi bosqichma-bosqich kengaytirilib, chuqurlashtirilib borilishi lozim.

Iqtisodiy atamalarni o'quvchilar tomonidan to'g'ri talaffuz qilinishiga erishish uchun, ularni dars boshida sinf doskasiga yozib qo'yish tavsiya etiladi. Bu esa, o'quvchining mazkur atamani eslab qolishini ta'minlaydi. Analogiya (o'xshash) tarz-dagi o'quv topshiriqlarini bajarishga o'quvchi nisbatan kam kuch sarflaydi. Chunonchi, mahsulot, ayirboshlash, bozor kabi iqtisodiy atamalarni o'quvchilar ongiga singdirishda ko'proq vaqt sarf qilinadigan bo'lsa, tovar, barter, birja kabilarga o'xshash bo'lgan atamalarni ularga yetkazish ancha oson kechadi. Iqtisodga oid bilimlarni taqdim etishga yo'naltirilgan ta'limiy topshiriqlar hamda o'quv materiallarining mazmunini belgilash jarayonida bu holatni alohida hisobga olishga intildik.

Masalan: 1-sinf ona tili darsida quyidagicha test beriladi:

(Inson qo'li bilan yaratilgan narsalar mahsulot deyiladi.)

Faqat mahsulotlarni ifodalovchi qatorni belgilang.

- A) Piyola, koptok, it, uzum.
- B) Non, o'rdak, kitob, qalam.
- B) Do'ppi, choynak, olma, daftar.

2-sinf ona tili darsida quyidagicha test beriladi:

(Sotish yoki almashtirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot tovar deyiladi.)

Sotish yoki almashtirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot nima hisoblanadi?

A) Bozor. B) Pul. V) Tovar. G) Mulk.

3-sinf ona tili darsida quyidagicha test beriladi:

(Tovarlarni tovarlarga pul siz ayrboshlash barter deyiladi.)

Tovarlarni tovarlarga pulsiz ayrboshlash nima deyiladi?

A) Do'kon. V) Barter. D) Mulk.

B) Maosh. G) Daromad. E) Bank.

4-sinf ona tili darsida quyidagicha test beriladi:

Bozorda tovarlarni sotish uchun ularga nima qo'yiladi?

A) Nafaqa.

B) Reja.

B) Narx.

G) Maosh.

D) Valyuta.

Bunday ta'limiy topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi mustaqil fikrlaydi, faol harakat qiladi, ijodiy faollik ko'rsatadi va shu asosda egallagan iqtisodga oid bilim, ko'nikma va malakalarini namoyon qiladi.

Iqtisodga oid bilim, tushunchalarni o'rgatishga yo'naltirilgan o'quv materiallarining mazmuni, izchilligi va hajmini belgilash jarayonida didaktikaning mana shu qonuniyatiga amal qilish nazarda tutiladi.

O'quvchilarning ijodkorlik, izlanuvchanlik, mustaqillik, tashabbuskorlik kabi mustaqil harakatlari stixiyali tarzda vujudga kelmasligi, balki iqtisodiy ta'limning mazmuni bunga asos bo'lishi lozim. Iqtisodiy ta'lim mazmuni o'quvchining faoliyatini maqsadli tarzda rivojlantirishga xizmat qilmog'i kerak. O'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda muayyan yoshdagi bolalarning ruhiy holatiga hamda imkoniyati va ehtiyojlariga moe ko'nikma, malakalar tizimini tarkib toptirishni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish ta'lim berishning faoliyatli yondashuvidan faol foydalanishga qaratilmog'i lozim. Bunda ta'limning asosini o'quvchilar tomonidan o'qituvchi bergan ma'lumotlarning hammasini eslab qolish emas, balki ularni ma'lumotlar takdim etish jarayonidagi ishtiroki tashkil etishi kerak. O'quvchi ta'lim jarayonining sub'ekta sifatida unda faol ishtirok etishi lozim.

Ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi uning iqtisodga oid bilim va tushunchalarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi bilan uzviy bog'liqlikda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina u o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarning muhokamasida ishtirok eta oladi, taqdim etilayotgan materialga hamda o'qituvchining vazifalariga e'tibori oshadi. O'quvchining qiziqishi iqtisodga oid bilim va tushunchalarni yaxshiroq eslab qolish hamda bolaning dars jarayonidagi faolligining oshishiga yordam beradi.

O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berishda faol yondashuv printsipi ularning izchil ravishda turli topshiriqlar, mashq, masalalar, testlarni yechish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda ish o'yinlarida faol qatnashish asosida amalga oshiriladi. Bu turdagi topshiriqlar, vazifalar, o'yin va amaliy ishlarni bajarish orqali o'qituvchi o'quvchilarni ba'zi bir iqtisodga oid bilim va tushunchalarni o'zlashtirishga mustaqil mantiqiy xulosalar chiqarish orqali olib keladi. Bunda o'quvchilarga tayyor bilimlar taqdim qilinmay, balki ular bu bilimlarni olish uchun doimo o'zlari mehnat qilishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi dars davomida o'quvchini doimo suhbatga tortishi, savollar zanjiri yordamida muhokamani to'g'ri yo'naltirishi, ularning javoblarini tuzatib, umumlashtirib turishi lozim.

Iqtisodiy ta'lim berish moduli tarzda qurilishi lozim. Buning ma'nosi shuki, o'rganilgan iqtisodiy tushunchalarga ularni kengaytirgan, chuqurlashtirgan, yangi atamalar qo'shilgan holda qaytib kelinadi. O'qituvchining asosiy vazifasi quyi sinflarda qisman tanishtirib o'tilgan materiallarga mohirona qaytishdan iborat. Bunda o'qituvchi o'rganilgan iqtisodiy mavzuni qaytarmasdan, balki uni o'quvchiga kengaytirib, chuqurlashtirib, yangi ma'lumotlar bilan boyitgan holda takdim etishi lozim. Boshlang'ich sinflarda beriladigan iqtisodiy bilimlarning mazmuni ham modul asosida belgilanishi talab etiladi. Masalan, o'quvchilarga 1-sinfda mahsulot va uning turlari haqida ma'lumot berilsa, 2-sinfda natural mahsulot va tovar, 3-sinfda esa moddiy va xizmat shaklidagi tovarlarning bir-biridan farqi, 4-sinfda tovarlarga bo'lgan talab va taklif haqida ma'lumot beriladi.

Taqdim etilayotgan savol va topshiriqlar avvalo qisqa va aniq bo'lishi, mantiqiy izchillikda berilishi, o'quvchining fikrini uyg'otishi: uni o'ylash, tahlil qilish, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni tushunishga undashi kerak. Bank, birja hamda o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiyalar uyushtirish o'quvchilarga o'tilgan materialni mustahkamlash, darsda olgan bilimlari haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

O'quvchilarning iqtisodga oid bilimlarini boyitish, ularning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish uchun:

- 1) 1-4 sinf o'quvchilariga o'rgatilishi ko'zda tutilgan iqtisodiy atama va tushunchalarni aniqlash, ularni izchil tizimga solish;
- 2) o'rgatilishi nazarda tutilgan iqtisodiy bilim, tushunchalarni o'quvchilarga singdirishning vosita va usullarini ishlab chiqish;
- 3) taqdim etilgan o'quv materiallarining o'quvchilar iqtisodiy bilimdonlik darajasini rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilimdonlikning rivojlanishi natijasida ular ijtimoiy hayotga jadal moslashib boradilar. Yoshlikdan boshlab o'quvchilar tanlov muommosini, ya'ni qaysi kitobni o'qish, kim bilan do'stlashish, uy ishini nimadan

boshlash, qaerga borish kerak va boshqalarni o'zlari hal qila boshlaydilar. Tanlov muammosini mustaqil hal qila olmagan o'quvchi "boqimandalikka" o'rganib qoladi. Iqtisodiy ta'lim o'quvchilarning nafaqat iqtisodiy tafakkurini, balki ma'naviy dunyoqarashini ham rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bozor iqtisodiyoti tushunchasining tarkibiy elementlari bilan tanishish natijasida ishchanlik shu tushunchaning tarkibiy qismi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida esa tadbirkorlik faoliyati uchun (moliyaviy masalalarda) "so'zning ustidan chiqmoq", ya'ni tadbirkorning imidji (obro'-e'tibori) moddiy kafolatdan ham ustun turadi. Buni o'quvchilarga ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab anglatib borish lozim.

Boshlang'ich sinflar uchun taqdim etiladigan iqtisodga oid bilim va tushunchalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida quyidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

1. Iqtisodga oid tushuncha va kategoriyalarni bilish o'quvchilarga atrof- muhit hamda uning asosiy qismi hisoblangan iqtisodiy munosabatlarni idrok etishga ko'maklashadi.
2. O'quvchilarning umumiy rivojlanishi, ya'ni fikrlashi, emotsional- irodasi hamda ruhiy-axloqiy sifatlarini shakllanishiga yordam beradi.
3. O'quvchilarga hayotda hamda keyinchalik yuqori sinflarda iqtisod asoslari fanini o'qishni davom ettirish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.
4. O'quvchilarda iqtisodiy tafakkur madaniyatini rivojlantiradi va iqtisodiy vositalardan foydalanishga o'rgatadi.

Biz boshlang'ich sinflar uchun taqdim etayotgan iqtisodga oid bilim, tushuncha va kategoriyalarning barchasini umumiy qamrab olishni maqsad qilib qo'ymadik. O'quvchilarga bir qator iqtisodga oid bilim va tushunchalar taqdim etiladiki, ular keyinchalik iqtisodiy ta'limning poydevorini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008,-B. 198
2. Boshlang'ich talimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma T.G'afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.
3. M. Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abduqudusova. Boshlang'ich talim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash.Toshkent- 2014
4. Rustamovich, Q. J. (2023). muammoli ta'limni tashkil etish va uni rivojlantirish yo'llari. obrazovanie nauka i innovatsionnie idei v mire, 22(4), 115-117.
5. Rustamovich, Q. J. (2024). O'quvchilar temperamentining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri. world of science, 7(1), 23-25.